

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60410800 – Menejment

Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60410800 – Menejment

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: MIRSOLIXOV MIRA'ZAM XASAN O'G'LI

Millat Umidi universiteti

Iqtisod magistri



A'zo: ILKHOM KHALIMZODA

University of Jyvaskyla

falsafa doktori (PhD)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260101
Xulosa raqami	792
Xulosa sanasi	19.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Guvohnoma: MAS № 0000288, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Menejment
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60410800
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000288, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60410800 – Menejment
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60410800 – Management
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60410800 – Менеджмент
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Menejer
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	300 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofoq / muvofoq emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofoq / qisman muvofoq / muvofoq emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

Baholash natijalariga ko'ra, Toshkent davlat tibbiyot universiteti Chirchiq filialining 60910600 – Oliy hamshiralik ishi bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy ta'minot, tashkiliy-boshqaruv tizimi, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyatini tashkil etish, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot kompleks tahlil qilindi. Tahlil natijalari ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-huquqiy va institutsional asoslar, Davlat ta'lim standartlari hamda malaka talablari asosida shakllantirilgan o'quv dasturi, professor-o'qituvchilar salohiyati va moddiy-texnik baza mavjudligini ko'rsatdi. Baholash yakunlariga ko'ra, barcha boblar muvofiq deb topildi, ayrim indikatorlar, jumladan 1.2, 1.3, 2.2, 3.6, 5.4, 6.4 va 6.7-mezonlar bo'yicha qisman muvofiqlik qayd etildi. Aniqlangan kamchiliklar asosan istiqbolli rivojlantirish rejasini va ichki sifatni ta'minlash jarayonlarini yanada to'liq hujjatlashtirish, ta'lim dasturi maqsadlari va o'quv natijalarining mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiqligini daliliy jihatdan asoslash, o'quv jarayonining ayrim mexanizmlarini takomillashtirish, vakant professor-o'qituvchi lavozimlarini malakali kadrlar bilan to'ldirish hamda simulyatsiya laboratoriyalari, tibbiy jihozlar va o'quv resurslari bilan ta'minlanganlikni belgilangan me'yorlarga muvofiq rivojlantirish bilan bog'liq bo'lib, ular ta'lim dasturini amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydigan, takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega. Umuman olganda, ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari va talablariga muvofiq deb topildi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha o'tkazilgan ichki va tashqi baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida ta'lim dasturi mazmuni yo'nalishidagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 60410800 – Menejment bakalavriat ta'lim

dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-martdagi 157-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat ta'lim standartlari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 1-avgustdagi 277-son buyrug'i bilan tasdiqlangan malaka talablari, Milliy malakalar ramkasining 6-darajasi hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son qarori bilan tasdiqlangan kredit-modul tizimi to'g'risidagi nizom talablariga to'liq muvofiq ishlab chiqilgani aniqlandi. Ta'lim dasturi mazmuni xalqaro standartlar — ISO 30414:2018, CIPD, SHRM, EQF hamda ECTS tamoyillari asosida shakllantirilgan bo'lib, bu menejment yo'nalishida inson resurslarini boshqarish, strategik boshqaruv va zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan xalqaro metodologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish imkonini yaratadi hamda bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi. Dastur maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari va shakllantiriladigan kompetensiyalar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, nazariy tayyorgarlikni amaliy boshqaruv faoliyati bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Ta'lim dasturi mazmuni milliy va xalqaro talablarga mos ravishda shakllantirilgan bo'lib, menejment sohasida zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun zarur asosni ta'minlaydi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'tkazilgan ichki va tashqi baholash natijalari hamda hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturining o'quv jarayoni O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son qarori bilan tasdiqlangan kredit-modul tizimi to'g'risidagi nizom, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomi (2018-yil 26-sentabr, 3069-son ro'yxatdan o'tkazilgan) hamda universitetning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq tashkil etilgani aniqlandi. O'quv rejalari va fan sillabuslari ish beruvchilar, jumladan Qishloq xo'jaligi vazirligi va "Agrobank" vakillari hamda professor-o'qituvchilar ishtirokida ishlab chiqilgan bo'lib, bu menejment ta'lim dasturi mazmunini real mehnat bozori ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, agrar profildagi oliy ta'lim muassasasida menejment yo'nalishini shakllantirishda agrar sektor vakillarining ishtiroki bitiruvchilarda sohaga mos boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun muhim omil hisoblanadi. Talabalar bilimini baholashning shaffof mexanizmlari, o'quv natijalarini muntazam monitoring qilish hamda akademik halollik tamoyillarining amaliyotga joriy etilgani

ta'lim jarayonining sifatini va ishonchliligini ta'minlaydi. O'quv jarayoni va baholash tizimi amaldagi normativ talablar hamda ta'lim dasturining maqsadlariga to'liq muvofiq tashkil etilgan.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha o'tkazilgan ichki va tashqi baholash natijalari hamda hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturiga qabul qilish mezonlari va talablari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-76 va PF-81-son farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 13-fevraldagi 81-son qarori bilan tasdiqlangan normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq ishlab chiqilgani aniqlandi. Qabul jarayonlari barcha abituriyentlar uchun ochiq va shaffof tashkil etilgan bo'lib, videokuzatuv, elektron monitoring tizimi hamda davlat komissiyasi nazorati asosida amalga oshiriladi. Qabul natijalarining my.uzbmb.uz va tdau.uz platformalarida e'lon qilinishi, shuningdek, apellyatsiya komissiyasi faoliyati hamda yozma murojaatlarni ko'rib chiqish tartibini nazarda tutuvchi apellyatsiya mexanizmining mavjudligi qabul jarayonining xolisligi va shaffofligini ta'minlaydi. Talabalar harakatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar, shuningdek, talabalarni akademik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari shakllantirilgan bo'lib, ular ta'lim oluvchilarning huquqlarini ta'minlash, akademik rivojlanishini qo'llab-quvvatlash hamda qulay ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi. Talabalar faoliyatini tashkil etish va boshqarish tizimi amaldagi normativ talablar hamda ta'lim dasturining maqsadlariga muvofiq yo'lga qo'yilgan.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha o'tkazilgan ichki va tashqi baholash natijalari hamda hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturining professor-o'qituvchilar bilan ta'minlanganlik darajasi amaldagi me'yoriy talablardan sezilarli yuqori ekani aniqlandi. Kafedrada jami 37 ta shtat birligi mavjud bo'lib, ta'lim dasturini amalga oshirishda 12 nafar professor-o'qituvchi faol ishtirok etadi. Asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar ulushi 91,6 foizni tashkil etib, belgilangan 70 foizlik me'yordan ancha yuqori ko'rsatkichni namoyon etadi. Ilmiy darajaga ega professor-o'qituvchilar ulushi 75 foizni (9 nafar PhD va DSc) tashkil etadi, bu esa bakalavriat ta'lim dasturlari uchun belgilangan 35 foizlik me'yordan sezilarli darajada yuqoridir. Bunday ilmiy salohiyat menejment yo'nalishida nazariy tayyorgarlikning yuqori sifatini, zamonaviy ilmiy

yondashuvlarning o'quv jarayoniga tatbiq etilishini hamda talabalarda kasbiy kompetensiyalarni samarali shakllantirishni ta'minlaydi. Professor-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, malaka oshirishi, ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha amaliy mexanizmlar yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular inson resurslari salohiyatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Inson resurslarini boshqarish tizimi amaldagi normativ talablar hamda ta'lim dasturining maqsadlariga muvofiq tashkil etilgan.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha o'tkazilgan ichki va tashqi baholash natijalari hamda hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. O'rganishlar natijasida universitetning moddiy-texnik bazasi amaldagi me'yoriy talablar darajasidan sezilarli yuqori shakllantirilgani aniqlandi. Universitetda 274 ta o'quv auditoriyasi (60 ta ma'ruza, 152 ta amaliy va 61 ta laboratoriya xonasi), 104 ta kompyuterlashtirilgan ish o'rni, 14 ta sport inshooti hamda 57 ta yong'in xavfsizligi vositasi mavjud. Bir talabaga to'g'ri keladigan o'quv maydoni 32,6 m² ni tashkil etib, bu belgilangan me'yordan (2,2 m²) qariyb 15 baravar yuqori ko'rsatkichni tashkil etadi. Auditoriyalar sig'imi bir smenada 9 671 nafar talabaga ta'lim berish imkonini yaratadi. Axborot-resurs markazi fondida jami 1 088 847 nusxadagi adabiyot, jumladan 215 248 nusxa darslik va 286 901 nusxa o'quv qo'llanma mavjud. Mazkur moddiy-texnik va axborot-resurs salohiyati menejment ta'lim dasturini zamonaviy talablarga muvofiq amalga oshirish, talabalarning nazariy bilimlarini amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish hamda raqamli ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun yetarli sharoit yaratadi. Moddiy-texnik ta'minot va axborot-resurs bazasi amaldagi normativ talablar hamda ta'lim dasturining ehtiyojlariga to'liq muvofiq shakllantirilgan.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni muntazam yangilab borish maqsadga muvofiq.

- ✓ Xalqaro standartlar (ISO 30414:2018, CIPD, SHRM) asosidagi mazmunni o'quv jarayoniga to'liqroq tatbiq etishni davom ettirish tavsiya etiladi.
- ✓ Ish beruvchilar bilan amaliyot hamkorligini kengaytirib, uni hujjatlashtirish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilab borish.
- ✓ Xalqaro menejment standartlari va metodologiyalarini o'quv jarayoniga izchil tatbiq etish.
- ✓ Qishloq xo'jaligi vazirligi, "Agrobank" va boshqa ish beruvchilar bilan amaliyot hamkorligini kengaytirish.
- ✓ Professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyatini saqlab qolgan holda amaliy boshqaruv tajribasini kuchaytirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA


Baholash natijalariga ko'ra, Toshkent davlat agrar universitetining 60410800 – Menejment bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy ta'minot, tashkiliy-boshqaruv tizimi, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyatini tashkil etish, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot kompleks tahlil qilindi. Tahlil natijalari ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur institutsional asoslar, jumladan "Agrobiznesni boshqarish va logistika" kafedrası faoliyati, Davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasining 6-darajasi hamda xalqaro standartlar (ISO 30414:2018, CIPD, SHRM, EQF va ECTS) talablari asosida shakllantirilgan ta'lim dasturi mavjudligini tasdiqladi. Shuningdek, professor-o'qituvchilar salohiyatining yuqori darajada shakllantirilgani, asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar ulushi 91,6 foizni, ilmiy darajaga ega professor-o'qituvchilar ulushi esa 75 foizni tashkil etishi ta'lim dasturining sifatli amalga oshirilishini ta'minlovchi muhim omillardan biri ekani aniqlandi.

Moddiy-texnik va axborot-resurs bazasi ham amaldagi me'yoriy talablar darajasidan yuqori shakllantirilgan bo'lib, universitetda 274 ta o'quv auditoriyasi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, keng qamrovli axborot-resurs markazi hamda bir talabaga 32,6 m² o'quv maydoni to'g'ri kelishi ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun yetarli sharoit yaratadi. Axborot-resurs markazi fondidagi 1 088 847 nusxadagi adabiyotlar ta'lim va ilmiy faoliyatni sifatli tashkil etish imkonini beradi.

Baholash yakunlariga ko'ra, tashkiliy-boshqaruv, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyati, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot yo'nalishlarining barchasi belgilangan akkreditatsiya mezonlariga muvofiq deb topildi. Baholash davomida aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturini amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydigan, uni yanada takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega. Umuman olganda, 60410800 – Menejment bakalavriat ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari va talablariga muvofiq hisoblanadi. Shu asosda ta'lim dasturi MUVOFIQ deb topildi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot

